BOLALAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH VA TA`MINLASH

Abduhomidov Ozodbek Ma`ruf o`g`li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq fakulteti 3-bosqich talabasi abduhamidovozodbek6@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Xamdamova Feruza O`razaliyevna** Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Fuqarolik huquqi va xalqaro xususiy huquq fanlari" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada bola huquqlarini ta`minlash va himoya qilish masalasi yoritiladi. Bola huquqlarini himoya qilishning ahamiyati, xalqaro va milliy huquqiy asoslari shuningdek bola huquqlari doirasidagi amaliyotdagi muammolar va yechimlar tahlil qilinadi. Bugungi kunda O`zbekistonda va xalqaro maydonda bola huquqlarini ta`minlashga doir olib borilayotgan ishlar va qabul qilinayotgan qonun hujjatlari atroflicha o`rganiladi. Ushbu maqola bola huquqlarini himoya qilish jiddiy masala ekanligi va davlatlar, xalqaro jamiyatlar bu masalaga jiddiy e`tibor qilishi kerakligini ta`kidlaydi.

**Kalit so`zlar:** Bola huqulari, Bola huquqlari to`g`risidagi konvensiya, huquqiy himoya, voyaga yetmaganlar, bolalar mehnati, bolalar savdosi.

Annotation: This scientific article covers the issue of ensuring and protecting children`s rights. The importance of protecting of children`s rights, international and national legal bases, as well as practical problems and solutions within the scope of children`s rights are analyzed. Today, in Uzbekistan and the international arena, the works and adopted legal documents regarding the provision of children`s rights are studied in detail. This article emphasize that the protection of children`s rights is a serious issue and states and international societies should pay serious attention to this issue.

Key words: Children`s rights, Convention on Children`s Rights, legal protection, minors, child labour, child traficking.

Аннотация: В данной научной статье освещается проблема обеспечения и защиты прав детей. Анализируется важность защиты прав детей, международные и национальные правовые основы, а также практические проблемы и пути их решения в сфере прав детей. Сегодня в Узбекистане и на международной арене детально изучаются работы и принятые правовые документы, касающиеся обеспечения прав детей. В данной статье подчеркивается, что защита прав детей является серьезной проблемой и государства и международные общества должны уделять этому вопросу серьезное внимание.

Ключевые слова: Права детей, Конвенция о правах ребенка, правовая защита, несовершеннолетние, детский труд, торговля детьми.

Hozirgi kunda dunyoda inson huquqlari, xususan, bolalarga nisbatan munosabat o`zgarib borayotgani, bolalar huquq va erkinliklarini kafolatlashning yangi mexanizmlarini mustahkamlash obyektiv zaruratga aylanib bormoqda. Bu huquqlar, ayniqsa, bolalarning yashash, fuqarolikka ega bo`lish, ism-sharifi, o‘z ota-onalarini bilish huquqi, zo‘ravonlikdan himoyalanish, oilaviy muhitdan mahrum bo‘lgan yoki farzandlikka olingan bolalarni ruhiy yoki jismonan himoya qilish huquqlarini ta’minlashning institutsional asoslarini yanada takomillashtirishda o‘z ifodasini topmoqda. Bola huquqlari ta`minlangan jamiyatda ertangi kunning vorislari kamol topadi va ular har tomomlama yetuk shaxs bo`lib ulg`ayib davlat va jamiyatga foyda keltiradi. Bola huquqlarini himoya qilish nafaqat ayrim mamlakatlar va jamiyatlarda balki xalqaro miqyosda tartibga solinganligi va xalqaro hujjatlar bilan belgilab qo`yilgani bolalar huquqlarini himoya qilish naqadar muhim ekanligini ko`rsatadi. Bola huqularini himoya qilish doirasida qabul qilingan xalqaro hujjatlarning boshida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi turadi ushbu hujjat 1948-yil, 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A(III) rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan va e`lon qilingan. Ushbu hujjatning 1-moddasiga muvofiq “Barcha odamlar o‘z qadr-qimmati va huquqlari borasida teng hamda erkin tug‘iladi. Ular aql va vijdon

egalari bo‘lib, bir-birlariga birodarlarcha munosabatda bo‘lishlari kerak”.[1] deyilgan va bundan ko`rinib turibdiki har bir inson erkindir va o`ziga berilgan huquqlaridan hech kimning tazyiqisiz foydalanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Bola huquqlariga oid milliy ilmiy adabiyotlarda ham ushbu masala turli yo`nalishlarda tadqiq etilgan. Xususan, Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasi dotsenti v.b. , yuridik fanlar bo`yicha PhD. Feruza Miruktamova voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlov masalasini tahlil qilar ekan, milliy qonunchilikni BMTning bolalarga nisbatan odil sudlov standartlariga muvofiqlashtirish, shuningdek, yuvenal yustitsiya tizimini rivojolantirish zarurligini asoslaydi. Muallifning yondashuvidan kelib chiqib aytish mumkinki, bola huquqlarini himoya qilish faqat huquqbuzarlik sodir etilganidan keyingi javobgarlik choralarini qo`llash bilan cheklanmasligi, balki bolaning manfaatlarini sud va boshqa huquqni qo`llash jarayonlarida mustaqil ravishda hisobga olishni ham qamrab olishi kerak.[2].

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti mustaqil tadqiqotchisi, yuridik fanlar nomzodi, dotsent Shahnoza Ganibaeva tomonidan olib borilgan tadqiqotda O`zbekistonda bola huquqlarini himoya qilishning tarixiy asoslari yoritilgan. Tadqiqot bola huquqlarini ta`minlash masalasini faqat zamonaviy qonunchilik bilan cheklamasdan, uning tarixiy, madaniy va ijtimoiy ildizlari bilan birgalikda o`rganish muhimligini ko`rsatadi[3]. Bu yondashuv milliy huquqiy tizimni tahlil qilishda tarixiy tajriba va zamonaviy xalqaro standartlar o`rtasidagi uzviy bog`liqlikni e`tiborga olish zarurligni anglatadi.

London School of Economics and Political Science professori, ijtimoiy psixologiya va media-kommunikatsiyalar bo`yicha olima Sonia Livingstone bolalar huquqlarini raqamli muhitda ta`minlash masalasiga alohida e`tibor qaratadi. Uning ilmiy yondashuviga ko`ra, bolalar va internet munosabatlarini faqat xavf va salbiy ta`sirlar nuqtayi nazaridan baholash yetarli emas; tadqiqot va davlat siyosati BMTning Bola huquqlari to`g`risidagi konvensiyasiga asoslangan huquqqa

yo`naltirilgan yondashuvni ham qamrab olishi lozim [4]. Mazkur qarash bugungi sharoitda bolaning shaxsiy hayoti daxlsizligi, axborot olish, fikr bildirish va raqamli xavfsizlik huquqlarini birgalikda ta`minlash zarurligini ko`rsatadi.

Yuqoridagi ilmiy qrashlarni umumlashtirgan holda, bola huquqlarini himoya qilishning samarali modeli uchta o`zaro bog`liq yo`nalishni qamrab olishi lozim, degan xulosaga kelish mumkin: birinchidan, bolaning huquq egasi sifatidagi maqomini tan olish; ikkinchidan, sud-huquq va ijtimoiy hinoya mexanizmlarini bolaning engt ustun manfaatlariga moslashtirish; uchunchidan, an`anaviy hamda raqamli muhitda yuzaga keladigan tahdidlardan kompleks himoya qilish. Ushbu yondashuv maqolada ko`rib chiqilayotgan xalqaro va milliy huquqiy mexanizmlarni baholash uchun nazariy asos bo`lib xizmat qiladi.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi

Bola va uning rivojlanishi, xususan, bolani butun umr davomida oilada va ijtimoiy hayotda himoya qilish tushunchasi uzoq vaqt davomida shakllanib borgan. Bola huquqlari doirasida tub o`zgarish yasab bergan hujjatlardan biri bu “Bola huqulari to`g`ridagi konvensiya”ning qabul qilinishi hisoblanadi va unga quyidagicha ta`rif beriladi “1989-yilda aql bovar qilmaydigan narsa yuz berdi. O`zgaruvchan dunyo tartibi fonida dunyo yetakchilari bir joyga yig`ilib, dunyo bolalari oldida tarixiy majburiyatlarni oldilar”. Ular xalqaro huquqiy baza-Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya”sini qabul qilib, har bir bolaga o‘z huquqlarini himoya qilish va bajarishga va’da berdilar. Ushbu shartnomada chuqur g`oya mavjud bo`lib: bolalar nafaqat ota-onalariga tegishli bo`lgan va ular uchun qaror qabul qilinadigan obyektlar yoki tarbiyalanuvchi kattalar emas. Aksincha, ular o`z huquqlariga ega insonlar va shaxslardir. Konvensiyada aytilishicha, bolalik 18 yoshgacha davom etadi; bu alohida, himoyalangan vaqt bo`lib, unda bolalarning o`sib-ulg`ayishi, ma`lum bir o`ziga kerak bo`lgan narsalarni o`rganishi, o`ynashi, rivojlanishi va munosib o`sishi uchun ruxsat berilishi kerak. Konvensiya tarixdagi eng keng tarqalgan ratifikatsiya qilingan inson huquqlari shartnomasiga aylandi va bolalar hayotini

o`zgartirishga yordam berdi [5]. “Ushbu hujjatda bola tushunchasiga quyidagicha ta`rif beriladi “18 yoshga to‘lmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan qo‘llaniladigan qonun bo‘yicha u ertaroq balog‘atga yetmagan bo‘lsa, bola hisoblanadi”[6]. O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasida bola huquqi sifatida quyidagilar qayd etilgan: “Bola huquqi – inson huquqlarining bolalarga nisbatan qo‘llanilishidir. Bu sohada maxsus normalarning ishlab chiqilishi alohida maqomdan kelib chiqadi bolaning jamiyatdagi o‘rni, uning oiladagi o‘rni, yoshi bilan bog‘liq barcha maxsus huquqlarga ega emasligi”[7] Brukvill markazidagi Long-Aylend universiteti falsafa professori B.Bandmanesa bola huquqlarini shunday tushuntiradi: “Bolalar huquqlari ularning ota-onasi bilan birlashish huquqini, inson shaxsini, shuningdek, jismoniy himoya, oziq-ovqat, davlat tomonidan to`lanadigan umumiy ta`lim, sog`liqni saqlash kabi asosiy ehtiyojlarini o`z ichiga oladi. Bolaning yoshi va rivojlanishiga mos keladigan g`amxo`rlik va jinoiy qonunlar, shuningdek, bolaning irqi, jinsi, milliy kelib chiqishi, dini, nogironligi, rangi, etnik kelib chiqishi yoki boshqa xususiyatlaridir”[8]. Bugungi kunda bila huquqlari, albatta, ta`minlanishi kerak degan g`oya ilgari surilmoqda. Chunki bu zarurat hisoblanadi bugungi statistikalarga e`tibor qaratadigan bo`lsak bola huquqlarini ta`minlanishi juda yomon ahvolda ekanligini ko`ramiz. Xususan “Barcha bolalar huquqlari muntazam ravishda suiiste`mol qilinadi yoki buziladi. Hatto bu tug`ilishdan boshlanishi mumkin. Misol uchun, dunyo bo`ylab taxminan 290 million bolaning tug`ilishi ro`yxatga olinmagan, shuning uchun ularning yuridik shaxsi yoki mavjudligini tasdiqlovchi hujjati yo`q. Bu ularning hayoti davomida o`z huquqlarini talab qilishini deyarli imkonsiz qiladi va bu ular yoshi ulg`ayganlarida maktabga bora olmasliklari, tibbiy yordam olishlari yoki ish topa olmasligini anglatadi. Kam daromadli mamlakatlardagi qizlar qonuniy shaxsga ega bo`lishlari va huquq va xizmatlardan foydalanishlari uchun atigi 50/50 imkoniyatga ega.

Dunyo bo`ylab 61 milliondan ortiq bola boshlang`ich maktabga bormaydi. Har yili taxminan 150 million qiz va 73 million o`g`il jinsiy tajovuzga uchraydi.

Ba`zi mamlakatlarda to`qqiz yoshli qizlar majburan turmushga chiqariladi, olti yoshli bolalar esa jinoiy sudlarda kattalardek hukm qilinadi. Har yili kamida 330 000 bola muhojir yoki qochqin bo`lgani uchun 80 mamlakatda immigratsiya hibsxonasida saqlanadi. Ko`pchilik bolalar esa ota-onasidan va oilasidan majburan ajratilgan. 2019-yilda har olti boladan biri o‘ta qashshoqlikda yashadi va bu bolalarni oiladagi zo‘ravonlik, bolalar mehnati, jinsiy ekspluatatsiya, o‘smirlar homiladorligi va yosh nikohga olish xavfini oshiradi. Covid-19 pandemiyasi davrida bu raqam sezilarli darajada oshdi. 2020-yilda qariyb 820 million bola maktabda qo‘l yuvish vositalariga ega emas edi, bu ularning sog‘lig‘iga bo‘lgan huquqlarini buzdi va infektsiyani yuqtirish va tarqalish xavfini oshirdi”[9].

Tadqiqot natijalari

Yuqoridagi statisiklardan xulosa qiladigan bo`lsak bola huquqlari jiddiy himoya ostiga olinishi kerak va bu huquqlarni himoya qilishda Bola huquqlari to`g`risidagi konvensiya muhim rol o`ynadi. Konvensiya 54 ta moddani o`z ichiga oladi, ularni 2 ta huquq toifasiga bo`lish mumkin: a) yashash huquqi: bolaning talablarini qondirish va uning hayotiy huquqlarini o`zida mujassamlashtirgan asosiy shartlarni, shuningdek, tibbiy xizmatlardan foydalanish, oziq-ovqat olish boshpanaga ega bo`lish kabi adolatli huquqlarni o`z ichiga oladi; b) rivojlanish huquqi: ta`lim olish, o`qitish, sog`liqni saqlash xizmatlari, reabilitatsiya xizmatlarini olish, ishga joylashish va dam olish imkoniyatlarini olish kabi huquqlar. Ushbu hujjatning 2-moddasiga muvofiq ishtirokchi davlatlar ushbu hujjatda berilgan bola huqularini ta`minlashi kerak. O`zbekiston respublikasi ham ushbu hujjat ishtirokchisi hisoblanadi va bugungi kunda o`zbekistonda ham bola huqulari himoyasiga doir juda ko`p islohotlar olib borilgan va bu davom etib kelmoqda. Xususan O`zbekistonning bola huquqlarini ta`minlashga doir eng katta harakatlaridan biri bu 1992-yil 9-dekabrda “Bola huqulari to`g`risida”gi konvensiyani ratifikatsiya qilishidir. Bundan tashqari konstitutsiyamizning bir

qancha moddalarida ham bola huqulari himoyasiga doir normalar berilgan. Respublikamizda bola huquqlari himoyasiga doir eng muhim hujjatlardan biri bu “Bola huqulari kafolatlari to`g`risida”gi qonun hisoblanadi. Bolalar huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, “Bolalar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”, “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”, “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlarda o‘z ifodasini topgan. Ushbu qonunning 4-moddasiga muvofiq bola huqularini himoya qilishning quyidagi yo`nalishlari berilgan va bu bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash;
- bolaning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish;
- bolaning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- bolaning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish;
- bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta’minlash;
- bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish[10] va boshqa bir qator yo`nalishlardir. Bundan tashqari, bu borada yana bir qancha islohotlardan biri bu 2022-2026-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning yangi strategiyasidir, bunda bola huqularini ta`minlashga bo`lgan bir qancha chora tadbilar belgilangan, xususan “Ayollarga pensiya hisoblashda ularning bolani parvarishlash ta’tilida bo‘lish vaqtining hammasini jamlaganda ish stajiga qo‘shib hisoblanadigan 3 yillik davrni 6 yilga oshirish; bolalikdan nogironligi bo‘lgan bolalarga 18 yoshgacha qaralgan davrni pensiya tayinlashda ish stajiga qo‘shib hisoblash”[11] kabilardir. Yuqoridagi misollardan ko`rishimiz mumkinki O`zbekistonda bola huqularini tartibga solids va ta`minlash mexanizimi yiriklashib bormoqda, shuning uchun ham O`zbekiston bola huquqlari himoyasi indeksida ham yuqorilab bormoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda bola huquqlarini himoya qilish va ta`minlash bugungi kunda butun dunyo miqyosida muhim masala ekanligi ta`kidlanmoqda va xalqaro huquq tizimi, jumladan, BMTning “Bolalar huquqlari to`g`risida”gi konvensiyasi(1989) va boshqa turli hujjatlar, bolalarning o`z huquqlarini amalga oshirishda yordamlashmoqda. Bu hujjatlar bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo`lib, ularga ta`lim, sog`liqni saqlash, xavfsizlik, va erkinlik kabi asosiy huquqlarni taqdim etadi. Bola huquqlarini himoya qilishda davlatlar va xalqaro tashkilotlar o`rtasida hamkorlik katta ahamiyatga ega. Bolalar hayoti, ta`limi va farovonligini ta`minlash uchun tegishli siyosatlar va dasturlarni ishlab chiqish zarur. Ammo, o`zgaruvchan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar bolalar huquqlari ta`minoti masalasiga yangi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. O`zbekistonda esa bola huquqlari kafolatlangan va davlat bu huqularni amalga oshirish uchun barcha imkonyatlarni ta`minlaydi, chunki O`zbekiston aholisining 10 milliondan ortig`ini yoshlar va bolalar tashkil qiladi. Xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-apreldagi “Bola huquqlari kafolatlarini yanada mustahkamlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakilining o‘rinbosari O`zbekiston - bola huquqlari bo`yicha vakil joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-maydagi “Bolalar huquqlarini himoya qilishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida Bola huquqlari bo‘yicha vakilning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari belgilandi; bolalar ombudsmani institutining tashkil etilishi jamiyatning bolalar muammolariga bo‘lgan e’tiborining ko‘rsatkichi bo‘lib, ularning o‘z huquqlariga ega shaxs sifatidagi ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlaydi va shu munosabat bilan ularning huquqlarini hurmat qilish jarayoni boshlanadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda bolalar huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha o‘ziga xos milliy huquqiy tizim shakllangan bo‘lib, ayni paytda mamlakatimiz yangi taraqqiyot yo‘lidan dadil qadam tashlayotgan davlatlardan biridir.

Foydalanilgan manbalar ro`yxati:

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi: BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrdagi 217 A (III)-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan: https://constitution.uz/oz/pages/humanRights

Miruktamova F. Justice for Children: National Legislation and Legal Issues for Its Improvement // Review of Law Science.

Ganibaeva Sh. Historical Foundations of Ensuring the Protection of Children`s Rights in Uzbekistan // Philosophy and Law.

Liningstone S. Reframing Media Effects in Terms of Children`s Rights in the Digital Age // Journal of Children and Media.

UNICEF. Convention on the Rights of the Child: https://www.unicef.org/child-rights-convention

Bola huquqlari to`g`risidagi konvensiya (1989) // Tergov.uz: https://tergov.uz/uz/childs/konventsija-o-pravah-rebenka

O`zbekiston yuridik ensiklopediyasi. - Toshkent: “Adolat”, 2011.

Bandman B. Bolalarning erkinlik, g`amxo`rlik va ma`rifat huquqi. - Nyu-York: Routledge, 1999. - B. 67.

Amnestey International. Child rights: https://www.amnesty.org/en/what-we-do/child-rights/

O`zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi O`RQ-139-son “Bola huquqlarining kafolatlari to`g`risida”gi Qonuni: https://lex.uz/mact/-1297315

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to`g`risida”gi Farmoni: https://lex.uz/uz/docs/-5841063